

O'ZBEKISTON FLORASIDAGI *LACTUCA SERRIOLA* L. NING FITOSENOTIK TAVSIFI

Mavlanov B.J.¹, Abduraimov O.S.², Maxmudov A.V.³, Allamurotov A.L.⁴, Mamatqosimov O.T.⁵, Dillaev O.Q.⁶.

¹O'zR FA Botanika instituti, kichik ilmiy xodim, e-mail: mavlanov.bekzod@mail.ru

²O'zR FA Botanika instituti, PhD, katta ilmiy xodim, e-mail: ozodbek88@bk.ru

³O'zR FA Botanika instituti, PhD, katta ilmiy xodim, e-mail: azizbek.mahmudov@inbox.ru

⁴O'zR FA Botanika instituti, kichik ilmiy xodim, e-mail: allamurotov0225@mail.ru

⁵O'zR FA Botanika instituti, tayanch doktorant, e-mail: omamatqosimov@inbox.ru

⁶Qarshi Davlat Universiteti o'qituvchisi, e-mail: odillaev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhim ozuqabop va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan *Lactuca serriola* L. turning fitosenotik tavsifi keltirilgan. Tadqiqotlar davomida O'zbekistonning turli botanik-geografik rayonlaridan 6 ta senopopulyatsiyalar ajratilgan. Turning o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan biri, bu uning turli xil tuproq sharoitlarida o'sishi bilan izohlanadi. Ajratilgan senopopulyatsiyalar dengiz sathidan 298-1549 m balandlik oralig'ida joylashgan. Global iqlim o'zgarishi, antropogen omillarning kuchli ta'siri hamda chorva mollarning boqilishi ushbu turning senopopulyatsiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Qayd etilgan senopopulyatsiyalarda tuproqning o'simliklar bilan qoplanish darajasi 27-80 % oralig'ida bo'lib, turning ulushi 1-3 % ni tashkil qiladi. Mazkur senopopulyatsiyalarda turlarning hayotiy shakllari bo'yicha tahlili quyidagicha ekanligi aniqlandi: daraxt - 2, buta-3, yarim buta - 4, ko'p yillik - 51, ikki yilliklar - 7 va bir yilliklar - 52 ta. *L. serriola* turli xil ekologik sharoitlarda o'sa olishi uning istiqbolli o'simlik sifatida foydalanish imkonini beradi. Fitosenozlarning asosiy ulushini bir va ko'p yillik o'simliklar tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: *Lactuca serriola*, flora, fitosenoz, senopopulyatsiya, madaniy o'simliklar yovvoyi ajdodi.

ФИТОСЕНОТИЧЕСКОЕ ХАРАКТЕРИСТИКА *LACTUCA SERRIOLA* L. ВО ФЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА

Мавланов Б.Ж.¹ Абдураимов О.С.², Махмудов А.В.³,
Алламуротов А.Л.⁴, Маматкасимов О.Т.⁵, Диллаев О.Қ.⁶

¹Институт Ботаники АН РУз, младший научный сотрудник,
e-mail: mavlanov.bekzod@mail.ru

²Институт Ботаники АН РУз, PhD, старший научный сотрудник,
e-mail: ozodbek88@bk.ru

³Институт Ботаники АН РУз, PhD, старший научный сотрудник,
e-mail: azizbek.mahmudov@inbox.ru

⁴Институт Ботаники АН РУз, младший научный сотрудник,
e-mail: allamurotov0225@mail.ru

⁵Институт Ботаники АН РУз, PhD докторант,
e-mail: omamatqosimov@inbox.ru

⁶Каршинский государственный университет
e-mail: odillaev@mail.ru

Аннотация. В данной статье приведены фитоценотическая характеристика имеющего важное кормовое и экономическое значение вида *Lactuca serriola* L. В ходе исследований выделено 6 ценопопуляций изучаемого вида из разных ботанико-географических районов Узбекистана. Одним из характерных особенностей является то, что они легко могут приспособливаться и произрастать в разных почвенно-климатических условиях. Выделенные ценопопуляции находятся в 298-1549 м над уровнем моря. Глобальные климатические изменения, сильное воздействие антропогенных факторов и регулярный выпас скота оказывают отрицательное влияние на выделенные

ценопопуляции. Проективное покрытие растений в зарегистрированных ценопопуляциях 27-80%, доля данного вида составляет 1-3%. Анализ жизненных форм растений в данных ценопопуляциях показывает результаты по следующему: деревьев 2 вида, кустарников 3 вида, полукустарников 4 вида, многолетников 51, двулетников 7 и однолетников 52 вида. Произрастание *L. serriola* в разных экологических условиях способствует использованию в качестве перспективного растения. Основную долю фитоценозов составляют однолетние и многолетние растения.

Ключевые слова: *Lactuca serriola*, флора, фитоценоз, ценопопуляция, дикий сорордичи культурных растений.

PHYTOSENOTIC CHARACTERISTICS OF LACTUCA SERRIOLA L. IN THE FLORA OF UZBEKISTAN

Mavlanov B.J.¹, Abduraimov O.S.², Maxmudov A.V.³,
Allamurotov A.L.⁴, Mamatqosimov O.T.⁵, Daliyev O. Q.⁶

¹Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Junior Researcher, e-mail: mavlanov.bekzod@mail.ru

²Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
PhD, Senior Researcher, e-mail: ozodbek88@bk.ru

³Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
PhD, Senior Researcher, e-mail: azizbek.mahmudov@inbox.ru

⁴Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Junior Researcher, e-mail: allamurotov0225@mail.ru

⁵Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
PhD student, e-mail: omamatqosimov@inbox.ru

⁶Karshi State University e-mail: odillaev@mail.ru

Abstract. This article presents the phytocenotic characteristics of the *Lactuca serriola* L. species, which has important forage and economic significance. During the research, 6 cenopopulations of the studied species from different botanical and geographical regions of Uzbekistan were identified. One of the characteristic features is that they can easily adapt and grow in different soil and climatic conditions. The selected cenopopulations are located at 298-1549 m above sea level. Global climatic changes, the strong impact of anthropogenic factors and regular grazing have a negative impact on the selected cenopopulations. The projective coverage of plants in the registered cenopopulations is 27-80%, the share of this species is 1-3%. The analysis of plant life forms in these cenopopulations shows results for the following: trees of 2 species, shrubs of 3 species, semi-shrubs of 4 species, perennials of 51, biennials of 7 and annuals of 52 species. The growth of *L. serriola* promotes its use as a promising plant in various environmental conditions. The main share of phytocenoses is made up of annual and perennial plants.

Keywords: *Lactuca serriola*, flora, phytocenosis, cenopopulation, wild relatives of cultivated plants.

Kirish. Dunyoda aholi sonining tez suratlarda oshib borishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan muhim xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan turlar hamda chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning ham tobora o'sishiga olib kelmoqda. Chorvachilik uchun ozuqa bazasining cheklanganligi va ayniqsa, yaylov chorvachiligi uchun yem-xashak bazasining taqchilligi mavjud tabiiy yaylovzorlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqishini talab etadi. Oziq-ovqat xavfsizligi xalqaro tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2050 - yilga borib insoniyatning ozuqabop o'simliklarga bo'lgan talabning ortib ketishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida bu xildagi o'simliklarni tadqiq etish hamda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan xulosalarni olishni taqozo etadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"


gi 484 – sonli qarorining 9-bob 20-bandida madaniy o‘simliklar ko‘payishini tiklash maqsadida ularning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlashni ta‘minlash hamda madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari har xil populyatsiyalari urug‘lari bankini tashkil etish belgilangan [2]. Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda floramizda tarqalgan Madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari (MO‘YA) xisoblangan o‘simliklarni populyatsiyalari holatini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Madaniy o‘simliklarning alohida xo‘jalik ahamiyatga ega yovvoyi ajdodlari – qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifatini, miqdorini yaxshilash va o‘simliklarning yo‘qolib ketish xavfini kamaytirish uchun asosiy genlar manbai hisoblanadi. Ammo, ularning tabiiy populyatsiyalarini optimal holatda saqlab qolish madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining (MO‘YA) o‘zinigina emas balki ular tarqalgan butun bir tizimni saqlab qolishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak [3].

So‘nggi yillarda Respublikamiz bo‘ylab MO‘YA ni o‘rganishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda [4,5,6,7,8], olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, floramizda MO‘YA larining 24 oila, 102 turkumga mansub 202 turi borligi aniqlangan [9]. Mazkur tadqiqot ishida Madaniy *Lactuca sativa* L. turining yovvoyi ajdodlaridan biri - *Lactuca serriola* L. ning O‘zbekiston florasidagi 6 ta lokal populyatsiyasining holati o‘rganilgan. Mazkur tur iqtisodiy ahamiyati yuqori bo‘lgan MO‘YA turlari qatorida oziq-ovqat [10, 11], dorivor [12, 13, 14], yem-xashak, moyli va kauchukli [15] iqtisodiy ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘simlik hisoblanadi. Floramizda ushbu turning genetik resurslarini saqlash maqsadida tadqiqotlar olib borilgan [16] biroq, tur populyatsiyalarining holati bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Lactuca serriola L. - Asteraceae oilasiga mansub bir yillik o‘simlik bo‘lib, 1756 - yilda K. Linney tomonidan botanik tavsif berilgan va 1763 - yilda *Lactuca serriola* L. deb nomlangan [17]. Mazkur o‘simlik turidan xalq tabobatining turli sohalarida foydalaniladi. Xususan Qadimgi Yunonistonda mazkur o‘simlikning sharbati bilan ko‘z yaralarini davolash va boshqa maqsadlarda keng foydalanilgan.

Tadqiqot ob‘ekti va metodlari. *Lactuca serriola* L. – bo‘yi (30) 40-200 sm, barglari navbatma-navbat joylashgan, uzunligi 5-25 sm va eni 1,5-12 sm, novdasimon, chetida mayda tikanlari bo‘ladi. Kosachasi kichik, ko‘p gulli (6-20 gulli). Gullari, sarg‘ish, quriganida ko‘k rangga aylanadi. Gullari asosan hasharotlar yordamida hamda o‘z-o‘zidan ham changlanish sodir bo‘ladi. Iyun - iyul oylarida gullab, mevasi iyul - avgustda pishadi [18]. Yo‘llar va ariqlar bo‘ylarida, yirik toshli va mayda zarrali tuproqlarda, tog‘larning o‘rta kamarigacha biroz sho‘rlangan hududlarda tarqalgan [19]. Mahalliy xalq hindibo, tikanli salat, qush oyog‘i va sigir tili deb nomlaydi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududning xaritasi.

O'simlik fitotsenozlarining geobotanika qaydnomalar 10 m² maydonda umumqabul qilingan metodlar yordamida amalga oshirildi [20, 21]. Turlarni identifikatsiyalash va ularning hayotiy shakllarini aniqlashda 10 jildli “Определитель растений Средней Азии” (1968-1993) asaridan foydalanildi. O'simliklarning nomlari <http://www.plantsoftheworldonline.org> [22] saytlariga muvofiq keltirildi. Qayd etilgan o'simlik jamoalaridagi turlarning uchrash mo'lligi Braun-Blanquet metodi yordamida ifodalandi [23]. Tadqiqot olib borilgan hududning xaritasi ArcGIS 10.8.0 dasturida tayyorlandi. Bunda biz SRTM (Shuttle Radar Topography Mission) eng yuqori aniqlikdagi raqamli topografik bazasidan 30-metrli o'lchamdagi balandlik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlarimiz 2022-2023 yillar davomida O'zbekistonning turli botanik geografik rayonlari (I-3-b - Sharqiy Oloy; II-1-a - Qayroqqum-Yozyovon; II-2-b - Mirzacho'l; I-6-a - Qashqadaryo; I-6-c - Boysun; I-7-a - Sangardak-To'polon tuman)da olib borildi. Tadqiqotlar davomida *Lactuca serriola* L. ishtirokidagi 6 ta senopopulyatsiyalar o'rganildi.

Dastlabki senopopulyatsiya Andijon viloyati Xo'jaobod tumani Imomota tog'ining janubi-sharqiy qismi, ola jinsli, qoya toshli yon bag'rlardan ajratilgan bo'lib mazkur senopopulyatsiyada 27 turdagi yuksak o'simliklar ro'yxatga olindi.

Ikkinchi senopopulyatsiya Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Vodil-Avval avtomagistral yo'li yoqasidagi adirliklardan ko'kamaronli-izenli-shuvoqzor o'simlik jamoasidan ajratildi. Hududning tuprog'i toshli-shag'alli va ola jinsli tuproqlardan iborat. Tuproqning o'simliklar bilan qoplanish darajasi 45-50 % ni tashkil etadi. Mazkur hududda 33 turdagi yuksak o'simliklar ro'yxatga olindi.

Uchinchi senopopulyatsiya Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumani, Uch tepa qishlog'i hududidan har xil o'tli – arpazor o'simlik jamoasida o'rganildi. Ushbu senopopulyatsiya mayda toshli bo'z tuproqda tarqalgan bo'lib, tuproqning o'simliklar bilan qoplanish darajasi 65 – 70% ni tashkil etadi. Ushbu senopopulyatsiyada 23 tur yuksak o'simliklar ro'yxatga olindi.

To'rtinchi senopopulyatsiya Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Ko'ktosh qishlog'i hududidan ajratildi. Mazkur hududning o'simliklar jamoasi har xil o'tli – sulizordan iborat. Hududda 23 ta yuksak o'simlik turi ro'yxatga olindi, tuproqning o'simliklar bilan qoplanish darajasi 27 % ni tashkil qiladi.

Beshinchi senopopulyatsiya Surxondaryo viloyati, Boysun tumani, Yuqori Machay qishlog'i hududidan har xil o'tli - qamishli - archazor o'simlik jamoasidan ajratildi. Hududning tuprog'i mayda toshli tuproq bo'lib, o'simliklar bilan qoplanishi darajasi 70-80 % ni tashkil etadi. Hududda 30 turdagi yuksak o'simlik ro'yxatga olindi.

Oltinchi senopopulyatsiya Surxondaryo viloyati, Sangardak yaqinidagi Nilu qishlog'i atrofida har xil o'tli-kovrakli-butazor o'simlik jamoasidan ajratildi. Hududning tuprog'i yirik xarsang toshlardan iborat bo'lib, mazkur senopopulyatsiyada 17 turdagi yuksak o'simliklar ro'yxatga olindi (1- jadval).

1- jadval. O'rganilgan senopopulyatsiyalarning xarakteristikasi

N _o SP	Ma'muriy joylashuvi	Geografik koordinatalar va balandlik	O'simlik jamoasi / dominant turlar	Turlar soni	QD %
1.	Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani, Imomotaning janubi- sharqiy qismi	N: 40,540868 E: 72,621524 h-966	Efemerli-shuvoqzor/ <i>Artemisia sogdiana</i>	27	30-40%
2.	Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani, Vodil-Avval hududida	N: 40,275199 E: 71,689182 h-742	Ko'kamaronli-izenli- shuvoqzor/ <i>Scutellaria comosa</i> , <i>Artemisia serotina</i>	23	45-50%

10.	<i>Alcea nudiflora</i> (Lindl.) Boiss.	Malvaceae	-	+	-	-	-	-
11.	<i>Alhagi pseudalhagi</i> subsp. <i>canescens</i> (Regel) Yakovl.	Fabaceae	+	+	-	-	-	-
12.	<i>Allium caesium</i> Schrenk	Amaryllidaceae	-	-	-	-	+	-
13.	<i>Allium jodanthum</i> Vved.	Amaryllidaceae	-	-	-	-	+	-
14.	<i>Allium oschaninii</i> O. Fedtsch.	Amaryllidaceae	-	-	-	-	+	+
15.	<i>Allium</i> sp.	Amaryllidaceae	-	-	-	-	-	+
16.	<i>Alopecurus pratensis</i> L.	Poaceae	+	-	-	-	-	-
17.	<i>Anchusa azurea</i> var. <i>azurea</i>	Boraginaceae	-	+	-	-	-	-
18.	<i>Arctium umbrosum</i> (Bunge) Kuntze	Asteraceae	-	-	+	-	-	-
19.	<i>Artemisia scoparia</i> Waldst. et Kitag.	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
20.	<i>Astragalus subscaposus</i> Boriss.	Fabaceae	-	-	-	-	+	-
21.	<i>Bromus inermis</i> Leyss.	Poaceae	+	-	-	-	-	-
22.	<i>Capparis spinosa</i> L.	Capparaceae	-	-	-	+	-	-
23.	<i>Cerastium arvense</i> L.	Caryophyllaceae	-	-	-	+	-	-
24.	<i>Cichorium intybus</i> L.	Asteraceae	+	-	-	+	-	-
25.	<i>Convolvulus arvensis</i> L.	Convolvulaceae	+	+	-	-	-	-
26.	<i>Convolvulus lineatus</i> L.	Convolvulaceae	-	+	+	-	-	-
27.	<i>Cousinia microcarpa</i> Boiss.	Asteraceae	+	-	-	-	+	-
28.	<i>Crambe cordifolia</i> subsp. <i>kotschyana</i> (Boiss.) Jafri	Brassicaceae	-	-	+	-	-	-
29.	<i>Cynodon dactylon</i> (L.) Pers.	Poaceae	-	+	-	-	-	-
30.	<i>Elwendia persica</i> (Boiss.) Pimenov & Kljuykov	Apiaceae	-	-	+	-	-	-
31.	<i>Elwendia</i> sp.	Apiaceae	-	-	-	-	-	+
32.	<i>Elymus repens</i> (L.) Gould	Poaceae	+	-	-	-	-	-
33.	<i>Equisetum ramosissimum</i> Desf.	Equisetaceae	-	-	+	-	-	-
34.	<i>Eremopyrum bonaepartis</i> (Spreng.) Nevski	Poaceae	-	-	-	-	-	+
35.	<i>Eremurus olgae</i> Regel	Asphodelaceae	-	-	+	-	-	+
36.	<i>Eremurus regelii</i> Vved.	Asphodelaceae	-	-	-	-	-	+
37.	<i>Haplophyllum pedicellatum</i> Bunge	Rutaceae	-	-	-	+	-	-
38.	<i>Hordeum bulbosum</i> L.	Poaceae	-	+	+	-	-	-
39.	<i>Iris warleyensis</i> Foster	Iridaceae	-	-	-	-	-	+
40.	<i>Ixiolirion tataricum</i> (Pall.) Schult & Schult. f.	Ixioliriaceae	-	-	+	-	-	-
41.	<i>Lolium pratense</i> (Huds.) Darbysh.	Poaceae	1	-	-	-	-	-
42.	<i>Malva neglecta</i> Wallr.	Malvaceae	+	-	-	-	-	-
43.	<i>Marrubium anisodon</i> Koch	Lamiaceae		-	+	-	-	-
44.	<i>Medicago sativa</i> L.	Fabaceae	+	-	-	-	+	-
45.	<i>Phragmites australis</i> (Cav.) Trin. ex Steud.	Poaceae	-	-	20	-	-	-
46.	<i>Plantago major</i> L.	Plantaginaceae	+	+	+	-	-	-
47.	<i>Poa bulbosa</i> L.	Poaceae	-	-	+	+	-	-
48.	<i>Poa trivialis</i> L.	Poaceae	-	+	-	-	-	-
49.	<i>Potentilla desertorum</i> Bunge	Rosaceae	-	-	+	-	-	-
50.	<i>Rumex chalepensis</i> Mill.	Polygonaceae	-	+	-	-	-	-
51.	<i>Rumex conglomeratus</i> Murray	Polygonaceae	+	-	-	-	-	-
52.	<i>Sanguisorba minor</i> subsp. <i>balearica</i> (Bourg. ex Nyman) Muñoz Garm. & C. Navarro	Rosaceae	-	-	+	-	-	-

53.	<i>Stipa</i> sp	Poaceae	-	-	-	-	-	+
54.	<i>Taraxacum officinale</i> F.H. Wigg.	Asteraceae	-	-	+	-	-	-
55.	<i>Trichodesma incanum</i> (Bunge) A.DC.	Boraginaceae	-	+	-	-	-	-
56.	<i>Trifolium pratense</i> L.	Fabaceae	-	-	-	-	+	-
57.	<i>Trifolium repens</i> L.	Fabaceae	-	-	+	-		-
58.	<i>Vicia angustifolia</i> Reichard	Fabaceae	-	-	-	-	+	-
59.	<i>Vicia tenuifolia</i> Roth	Fabaceae	+	-	-	-	-	-
Ikki yillik								
60.	<i>Centaurea depressa</i> M. Bieb.	Asteraceae	-	+	-	-	-	-
61.	<i>Cirsium arvense</i> (L.) Scop.	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
62.	<i>Melilotus officinalis</i> (L.) Lam.	Fabaceae	+	+	-	-	+	-
63.	<i>Pseudohandelia umbellifera</i> (Boiss.) Tzvelev	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
64.	<i>Reseda luteola</i> L.	Resedaceae	-	-	-	+	-	-
65.	<i>Silybum marianum</i> (L.) Gaertn.	Asteraceae	+	-	-	-	-	-
66.	<i>Lactuca serriola</i> L.	Asteraceae	2	1	3	1	2	3
Bir yillik								
67.	<i>Aegilops triuncialis</i> L.	Poaceae	-	+	-	-	-	-
68.	<i>Aphanopleura capillifolia</i> (Regel et Schmalh.) Lipsky	Apiaceae	-	-	-	-	+	-
69.	<i>Arnebia decumbens</i> (Vent.) M. Král.	Boraginaceae	-	-	-	+		-
70.	<i>Astragalus dipelta</i> Bunge	Fabaceae	-	-	-	-	+	-
71.	<i>Astragalus filicaulis</i> Kar. et Kir.	Fabaceae	-	-	-	-	+	-
72.	<i>Astragalus schmalhauseni</i> Bunge	Fabaceae	-	-	-	-	+	-
73.	<i>Astragalus stenanthus</i> Bunge	Fabaceae	-	-	-	-	+	-
74.	<i>Avena fatua</i> L.	Poaceae	+	+	-	+	-	+
75.	<i>Bromus japonicus</i> subsp. <i>japonicus</i>	Poaceae	-	+	-	-	-	-
76.	<i>Bromus sterilis</i> L.	Poaceae	-	-	+	-	-	-
77.	<i>Bromus tectorum</i> L.	Poaceae	-	-	-	-	-	+
78.	<i>Buglossoides arvensis</i> (L.) Johnstone	Boraginaceae	-	-	-	+	-	-
79.	<i>Centaurea belangeriana</i> (DC.) Stapf	Asteraceae	-	-	-	+	+	-
80.	<i>Centaurea iberica</i> Trevir. ex Spreng	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
81.	<i>Chardinia orientalis</i> (L.) Kuntze	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
82.	<i>Chenopodium album</i> L.	Amaranthaceae	+	-	-	-	-	-
83.	<i>Descurainia sophia</i> (L.) Webb. & Prantl	Brassicaceae	-	-	+	-	-	-
84.	<i>Erodium cicutarium</i> (L.) L'Her.	Geranaceae	+	-	-	+	-	-
85.	<i>Euclidium syriacum</i> (L.) W.T. Aiton	Brassicaceae	-	-	-	+	-	-
86.	<i>Euphorbia chamaesyce</i> L	Euphorbiaceae	-	-	-	+	-	-
87.	<i>Euphorbia helioscopia</i> L.	Euphorbiaceae	-	-	-	+	-	-
88.	<i>Filago arvensis</i> L.	Asteraceae	-	-	-	+	-	-
89.	<i>Galium spurium</i> L.	Rubiaceae	-	-	+	-	-	-
90.	<i>Glaucium fimbriigerum</i> Boiss.	Papaveraceae	-	-	-	+	-	-
91.	<i>Heteracia szovitzii</i> Fisch. et C.A.Mey.	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
92.	<i>Heteranthelium piliferum</i> (Banks & Sol.) Hochst.	Poaceae	-	-	+	-	-	-
93.	<i>Hordeum murinum</i> subsp. <i>leporinum</i> (Link) Arcang.	Poaceae	+	+	-	-	-	-
94.	<i>Hordeum vulgare</i> subsp. <i>spontaneum</i>	Poaceae	+	+	-	-	-	-

	(K. Koch) Asch. & Graebn.							
95.	<i>Koelpinia linearis</i> Pall.	Asteraceae	-	-	+	-	-	-
96.	<i>Lappula microcarpa</i> (Ledeb.) Gürke	Boraginaceae	-	-	-	+	-	-
97.	<i>Lathyrus aphaca</i> L.	Fabaceae	+	-	+	-	-	-
98.	<i>Lolium temulentum</i> L.	Poaceae	-	-	+	-	-	-
99.	<i>Medicago lupulina</i> L.	Fabaceae	-	-	+	-	+	-
100.	<i>Medicago orbicularis</i> (L.) Bartal.	Fabaceae	-	-	-	+	-	-
101.	<i>Minuartia meyeri</i> (Boiss.) Bornm.	Caryophyllaceae	-	-	-	+	-	-
102.	<i>Roemeria pavonina</i> (Schrenk) Banfi, Bartolucci, J.-M. Tison & Galasso	Papaveraceae	-	-	-	+	-	-
103.	<i>Picnomon acarna</i> (L.) Cass.	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
104.	<i>Piptoclaina supina</i> (L.) G. Don	Boraginaceae	-	-	-	+	-	-
105.	<i>Poa annua</i> L.	Poaceae	-	+	-	-	-	-
106.	<i>Polygonum aviculare</i> L.	Polygonaceae	+	+	-	-	-	-
107.	<i>Roemeria pavonina</i> (Schrenk) Banfi, Bartolucci, J.-M. Tison & Galasso	Papaveraceae	+	-	-	-	-	+
108.	<i>Roemeria refracta</i> DC.	Papaveraceae	-	-	+	+	-	-
109.	<i>Sisymbrium irio</i> L.	Brassicaceae	-	-	-	+	-	-
110.	<i>Solanum nigrum</i> L.	Solanaceae	-	-	-	+	-	-
111.	<i>Sonchus asper</i> (L.) Hill	Asteraceae	-	-	-	-	+	-
112.	<i>Strigosella africana</i> (L.) Botsch.	Brassicaceae	-	-	-	+	-	+
113.	<i>Taeniatherum crinitum</i> (Schreb.) Nevski	Poaceae	-	-	+	-	-	-
114.	<i>Medicago monantha</i> (C.A. Mey.) Trautv.	Fabaceae	-	-	-	+	+	-
115.	<i>Trigonella grandiflora</i> Bunge	Fabaceae	-	-	-	-	-	-
116.	<i>Vicia sativa</i> subsp. <i>nigra</i> (L.) Ehrh.	Fabaceae	-	+	-	-	-	-
117.	<i>Vulpia ciliata</i> Dumort.	Poaceae	-	-	-	+	-	-
118.	<i>Ziziphora tenuior</i> L.	Lamiaceae	-	-	-	+	-	-

Xulosa. Ma'lumki, so'nggi yillarda oziq ovqat va dorivor o'simliklarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur xildagi o'simliklarni aniqlash hamda ularning tabiiy senozlaridagi holatini baholash muhim hisoblanadi. Aynan shunday xildagi o'simliklardan biri, madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlari sifatida keng ravishda foydalanib kelinadigan *Lactuca serriola* L. hisoblanadi. O'simlik quruq dashtlardagi namliklarni ham xush ko'radi, ayrim hududlarda begona o't sifatida ham tarqalgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra *Lactuca serriola* 3 – va 6-senopopulyatsiyalardagi ulushi yuqori, 1- va 5 – senopopulyatsiyalarda o'rta, 2- va 4-senopopulyatsiyalarda nisbatan past xolatda ekanligi kuzatildi. Olingan natijalar kelgusida mazkur tur ustida olib boriladigan tadqiqotlarda va malum hududlarning o'simliklar kadastrini yuritishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. О состоянии мировых генетических ресурсов растений для производства продовольствия и ведения сельского хозяйства. Второй Доклад. Сводный отчет. 2019. <https://www.fao.org/agriculture/seed/sow2/en/>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi "2019-2028-Yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi №484-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4372839>

3. Maxmudov A.V., Abduraimov O.S., Allamurotov A.L., Mavlanov B.J., Mamatqosimov O.T. O'zbekiston florasida madaniy o'simliklari yovvoyi ajdodlarining tabiiy resurslari (*Hordeum bulbosum* L. misolida) // QarDU xabarlari 4/1(59) 2023 S. 97-104.
4. Абдураимов О.С., Махмудов А.В., Аймуратов Р.П., Алламуратов А.Л., Саробаева Ш.У., Мавланов Б.Ж. Редкие виды диких родичей культурных растений Республики Узбекистан. Вестник АН РУз Каракалпакское отделение. 2021. №3. С.37-43.
5. Abduraimov O.S., Abdullaev F.X., Allamurotov A.L., Mavlanov B.J., Qurbonov O.A. Madaniy o'simliklarning O'zbekiston florasidagi yovvoyi ajdodlarining iqtisodiy ahamiyati // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. № 4-1 (88), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022 y. – 308 b.
6. Абдураимов О.С., Нархаджаева А., Махмудов А.В., Маматкулова И.Э. Ўзбекистон флорасидаги маданий ўсимликлар ёввойи аجدодларининг озуқабоп турлари // Вестник КГУ. - Карши, 2021.-№.3 (49). - С.45-53.
7. Mamatkasimov O.T., Abduraimov O.S., Maxmudov A.V., Mavlanov B.J., Allamurotov A.L. (2023) State of Local Populations of *Aegilops triuncalis* L. in Uzbekistan. American Journal of Plant Sciences, 14, 1305-1315. <https://doi.org/10.4236/ajps.2023.1411088>
8. Абдураимов О.С., Махмудов А.В., Маматкасимов О.Т., Алламуратов А.Л., Мавланов Б.Ж. Таксономический анализ диких сородичей культурных растений в Средней Азии //1st international conference: Conservation of Eurasian biodiversity: contemporary problems, solutions and perspectives. Part II. 15-17 may, 2023, Andijan State University, Andijan, Uzbekistan. 2023. – 224 p.
9. Abduraimov OS, Maxmudov AV, Kovalenko I, Allamurotov AL, Mavlanov BJ, Shakhnoza SU, Mamatkasimov OT. 2023. Floristic diversity and economic importance of wild relatives of cultivated plants in Uzbekistan (Central Asia). Biodiversitas 24: 1668-1675.
10. Брежнев Д.Д., Коровина О.Н. Дикие сородичи культурных растений флоры СССР. Ленинград. Изд. Колос.1981. 376 с.
11. Nora P. Castañeda-Álvarez, Colin K. Khoury, Chrystian C. Sosa, Harold A. Achicanoy, Vivian Bernau, Holly Vincent, Andy Jarvis, Paul C. Struik and Nigel Maxted., A Global Perspective on Crop Wild Relatives: Distributions and Conservation Ex Situ // Conference: International Annual Meeting American Society of Agronomy/ Crop Science Society of America/ Soil Science Society of America. November 6, 2013
12. Abdul-Jalil TZ. *Lactuca serriola*: Short Review of its Phytochemical and Pharmacological Profiles. International Journal of Drug Delivery Technology. 2020;10(3):505-508.
13. Mohammad A. Traditional use of Kahu (*Lactuca scariola* L.) – a review. Global J. Res. Med. Plants Indigen. Med. 2013;2(6): 465-474.
14. Uniyal SK, Singh KN, Jamwal P, Lal B. Traditional use of medicinal plants among the tribal communities of Chhota Bhangal, Western Himalayan. J. Ethnobiol. Ethnomed. 2006;2:1-14.
15. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Шомуродов Х.Ф., Кодиров У.Х., Тургинов О.Т., Шарипова В.К. Кадастр флоры Узбекистана: Кашкадарьинская область. – Ташкент: Фан, 2019. – 256 с.
16. Kik S, A Makhmudov and FO Khassanov, 2019. Report of a *Lactuca altaica* Fisch. & C.A. Mey and *L. serriola* L. collecting expedition in Uzbekistan; Itinerary, collected material and data. Centre for Genetic Resources, the Netherlands (CGN), Wageningen University & Research, CGN Report 45. 22 pp
17. Linnaeus C. Species plantarum (ed. 1). 1050-1051 (1753). 2:996. 18.Определитель растений Средней Азии. – Ташкент, 1993.Т. X. 126-131 с.
19. Ковалевская С. С. *Lactuca* – Латук. Флора Узбекистана. – Ташкент: АН СССР, 1962. Т.VI.– С. 483-489.
20. Полевая геоботаника // Под общей редакцией Е.М. Лавренко и А.А. Корчагина. – М.: Наука, 1964. –Т. 3. – 230 с.

21. Шенников А.П. Введение в геоботанику. – Л.: Наука, 1964. – 447 с.
22. <http://www.plantsoftheworldonline.org/>
23. Braun-Blanquet, J. (1964) Pflanzensoziologie, Grundzüge der Vegetationskunde. 3rd Edition, Springer-Verlag, Berlin, 631. <http://dx.doi.org/10.1007/978-3-7091-8110-2>
24. Ahmad F., Khan R.A. Study of analgetic and inflammatory activity from plant extract of *Lactuca scariola* and *Artemisia absinthium*. Journal of Islamic Academy of Sciences. 1992; 5:111-114.
25. Бубенчиков Р.А., Кораблева Т.В. Разработка методик идентификации и количественного определения флавоноидов в траве латука компасного (*Lactuca serriola* L.). Курский научно-практический вестник "Человек и его здоровье". – 2019. – № 2. [doi: 10.21626/vestnik/2019-2/10](https://doi.org/10.21626/vestnik/2019-2/10).
26. Ковригина Л. Н. *Lactuca serriola* L. – Латук компасный // Черная книга флоры Сибири. Новосибирск: Академическое изд-во «Гео», 2016. С. 111–115.